# XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2024 - yil 5 - fevral VI-54-2-3-48-K/24 Zomin tumani hokimligi

**“Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash jamg‘armasi”dan bo‘lgan qarzdorlikni qaytarish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari Zomin tumani Kengashi

**QAROR QILADI :**

1. Tuman hokimligining “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash jamg‘armasi”dan bo‘lgan qarzdorligi 2024-yil boshiga 1961,3 mln so‘m bo‘lganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari qismi hisobidan 500,0 mln so‘m “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash jamg‘armasi”ga qaytarilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov)ga mahalliy budjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman hokimligi bosh hisobchisi v.v.b (A.Ro‘zibekov)ga ajratilgan mablag‘larni “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash jamg‘armasi”ga o‘tkazib berish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi boshlig‘i (O.G‘afforov)ga ushbu mablag‘ni tegishli tartibda moliyalashtirilishini ta’minlasin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” bo‘yicha doimiy komissiya raisi (S.Ergashev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **A.Abdug'aniyev**